

O'zbekiston Respublikasining Qonuni

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26-aprelda qabul qilingan

Senat tomonidan 2019-yil 3-mayda ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va qo'llanilish sohasi

Ushbu Qonunning maqsadi davlat-xususiy sheriklik, shu jumladan konsessiyalar sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

(1-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

Ushbu Qonunning amal qilishi mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitimlarga va davlat xaridlari sohasiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Konsessiya loyihalarini ro'yobga chiqarish, shuningdek konsessiya shartnomalarini tuzish ushbu Qonunda davlat-xususiy sheriklik loyihalari uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

(1-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuniga](#) asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

2-modda. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonunchilik

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

(2-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

davlat-xususiy sheriklik — davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun oʻz resurslarini birlashtirishga asoslangan hamkorligi;

davlat-xususiy sheriklik loyihasi — iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy vazifalarni hal etishga qaratilgan, xususiy investitsiyalarni jalb etish va (yoki) ilgʻor boshqaruv tajribasini joriy etish asosida amalga oshiriladigan tadbirlar majmui;

davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasi — davlat sherigi va (yoki) xususiy tashabbuskor tomonidan tayyorlangan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish toʻgʻrisida qaror qabul qilish uchun tanlovni asoslab beradigan, loyiha qiyamini, loyiha moliyalashtirish manbaini hamda rentabelligini belgilaydigan, uni amalga oshirishning samaradorligi va dolzarbligi asoslarini oʻz ichiga olgan hujjat;

davlat-xususiy sheriklik obyekti — loyihalashtirilishi, qurilishi, barpo etilishi, yetkazib berilishi, moliyalashtirilishi, rekonstruksiya qilinishi, modernizatsiyalashtirilishi, ekspluatatsiya qilinishi va xizmat koʻrsatilishi davlat-xususiy sheriklik loyihasini roʻyobga chiqarish doirasida amalga oshiriladigan mol-mulk, mulkiy komplekslar, ijtimoiy infratuzilma, yer uchastkalari, shuningdek davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish jarayonida joriy etilishi lozim boʻlgan ishlar (xizmatlar) va innovatsiyalar;

davlat-xususiy sheriklik obyektidan erkin foydalanilishi uchun toʻlov — davlat-xususiy sheriklik toʻgʻrisidagi bitimga muvofiq davlat-xususiy sheriklik obyektidan foydalanish (uni ekspluatatsiya qilish) va (yoki) ushbu obyektga xizmat koʻrsatish davrida undan erkin foydalanilishini taʼminlaganlik uchun xususiy sherikka davlat sherigi tomonidan amalga oshiriladigan toʻlovlar;

davlat sherigi — Oʻzbekiston Respublikasi va (yoki) davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan boshqa yuridik shaxslar yoki ularning birlashmalari;

konsessiya — davlat-xususiy sheriklikning shakllaridan biri boʻlib, bunda davlat xususiy sherikka konsessiya shartnomasida nazarda tutilgan xoʻjalik faoliyatining muayyan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma bergan holda mol-mulkni va yer uchastkalarini taqdim etadi;

maxsus loyihalashtirish kompaniyasi — tender gʻolibi, zaxiradagi gʻolib, xususiy tashabbuskor yoki toʻgʻridan-toʻgʻri muzokaralar ishtirokchisi tomonidan faqat davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun tashkil etilgan va Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq roʻyxatdan oʻtkazilgan yuridik shaxs;

talabgor — davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishdan va tenderda ishtirok etishdan manfaatdor boʻlgan, Oʻzbekiston Respublikasining yoki chet davlatning qonunchiligiga muvofiq roʻyxatdan oʻtkazilgan yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxs yoki yuridik shaxslarning birlashmasi;

foydalanganlik uchun toʻlov — tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) isteʼmol qiluvchilardan davlat-xususiy sheriklik toʻgʻrisidagi bitimga muvofiq davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish doirasida xususiy sherik tomonidan yigʻib olinadigan toʻlovlar;

xususiy sherik — Oʻzbekiston Respublikasining yoki chet davlatning qonunchiligiga muvofiq roʻyxatdan oʻtkazilgan, davlat sherigi bilan davlat-xususiy sheriklik toʻgʻrisida bitim tuzgan yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxs yoki yuridik shaxslarning birlashmasi.

(3-moddaning matni Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi OʻRQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

4-modda. Davlat-xususiy sheriklikning asosiy prinsiplari

Davlat-xususiy sheriklikning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

davlat sherigining va xususiy sherikning qonun oldida tengligi;

davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishdagi qoidalar va tartib-taomillarning shaffofligi;

xususiy sherikni tanlashdagi bahslashuv va xolislik;

kamsitishga yo'l qo'ymaslik;

korruptsiyaga yo'l qo'ymaslik.

5-modda. Davlat sherigining va xususiy sherikning qonun oldida tengligi prinsipi

Davlat sherigi va xususiy sherik teng taraflardir.

6-modda. Davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishdagi qoidalar va tartib-taomillarning shaffofligi prinsipi

Davlat-xususiy sheriklikning qoidalari va tartib-taomillari manfaatdor shaxslar uchun ochiq, shaffof va tushunarli bo'lishi kerak.

Davlat sherigi davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan davlat-xususiy sheriklikning qoidalari va tartib-taomillari to'g'risidagi axborotdan erkin foydalanilishini ta'minlashi shart.

(6-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

7-modda. Xususiy sherikni tanlashdagi bahslashuv va xolislik prinsipi

Xususiy sherikni tanlashdagi bahslashuv va xolislik tanlovga ko'ra saralab olish mexanizmlaridan foydalanish, davlat-xususiy sheriklik qoidalari hamda tartib-taomillarini amalga oshirishdagi va xolis hamda asoslantirilgan mezonlar asosida maqbul variant foydasiga qarorlar qabul qilishdagi halollik va shaffoflik hisobiga ta'minlanadi.

8-modda. Kamsitishga yo'l qo'ymaslik prinsipi

Kamsitishga yo'l qo'ymaslik quyidagilarni ta'minlash orqali kafolatlanadi:

tender tartib-taomillari ishtirokchilari huquqlarining tengligi;

xususiy sherikni tanlashdagi xolislik;

xususiy sherikni tanlashdagi ochiqlik.

Xususiy tashabbuskorlarga, talabgorlarga, xususiy sheriklarga, shu jumladan chet ellik xususiy tashabbuskorlarga, talabgorlarga, xususiy sheriklarga O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan teng huquqlar, faoliyatning kamsitish xususiyatiga ega choralar qo'llanilishini istisno etuvchi huquqiy rejimi kafolatlanadi.

(8-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

9-modda. Korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik prinsipi

Davlat-xususiy sheriklik qoidalari va tartib-taomillariga doir talablar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymasligi hamda korrupsiyaning va korrupsiyaga sabab bo'luvchi omillarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ta'minlashi kerak.

2-bob. Davlat-xususiy sheriklik sohasini davlat tomonidan tartibga solish

10-modda. Davlat-xususiy sheriklik sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Davlat-xususiy sheriklik sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini ta'minlash;

davlat-xususiy sheriklik sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish;

mavjud ijtimoiy infratuzilmani shakllantirishga, tiklashga, undan foydalanishga, uni saqlashga ko'maklashish;

ijtimoiy infratuzilmadan foydalanish va unga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;

davlat xizmatlari sifatini yaxshilash va ulardan erkin foydalanishni kengaytirish;

xususiy sektorning moliyaviy mablag'larini, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish;

davlat-xususiy sheriklikning institutsional-huquqiy asoslarini rivojlantirish va takomillashtirish uchun ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, zamonaviy uslublar va texnologiyalarni joriy etish.

11-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat-xususiy sheriklik sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

davlat-xususiy sheriklik sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha davlat sherigini tayinlashda noaniqlik yuzaga kelgan hollarda, davlat-xususiy sheriklik sohasidagi vakolatli organing taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining bayonnomasiga binoan davlat sherigini belgilaydi.

(11-moddaning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

davlat-xususiy sheriklik sohasida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi;

umumiy qiymati o'n million AQSH dollaridan ortiq bo'lgan ekvivalentdagi davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini tasdiqlaydi;

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining reyestrini yuritish tartibini belgilaydi;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim muvaffaqiyatli rasmiylashtirilganligi uchun tender g'olibidan yoki to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar ishtirokchisidan undiriladigan bir martalik to'lov miqdorini belgilaydi.

(11-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuniga](#) asosan yettinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

12-modda. Davlat-xususiy sheriklik sohasidagi vakolatli davlat organi

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi davlat-xususiy sheriklik sohasidagi vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Vakolatli davlat organi:

davlat-xususiy sheriklik sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi;

davlat-xususiy sheriklik sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

davlat-xususiy sheriklik loyihalarini tayyorlash va amalga oshirishda idoralararo muvofiqlashtirishni ta'minlaydi;

davlat-xususiy sheriklik sohasidagi davlat dasturlarini amalga oshirishda, shuningdek davlat-xususiy sheriklik loyihalarining konsepsiyalarini ishlab chiqishda vazirliklarga, idoralarga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga ko'maklashadi;

(12-modda ikkinchi qismining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-noyabrdagi O'RQ-880-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son)

investorlar, xalqaro moliya va donorlik tashkilotlari, ilmiy va ekspert hamjamiyatlari, shuningdek davlat-xususiy sheriklikning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlikni tashkil etadi;

davlat-xususiy sheriklik sohasida uslubiy hujjatlarni, qo'llanmalar va yo'riqnomalarni tayyorlaydi;

davlat-xususiy sheriklik loyihalarining texnik-iqtisodiy parametrlariga doir sharhlarni ko'rib chiqadi va taqdim etadi;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi namunaviy bitimlar loyihalarini ishlab chiqadi;

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining reyestrini yuritadi;

davlat-xususiy sheriklik loyihalarini tayyorlashga va amalga oshirishga ko'maklashadi;

umumiy qiymati bir million AQSH dollaridan ortiq bo'lgan ekvivalentdagi davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini ma'qullaydi, rad etadi yoki maromiga yetkazish uchun qaytaradi;

umumiy qiymati o'n million AQSH dollaridan ortiq bo'lgan ekvivalentdagi davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritadi;

umumiy qiymati bir million AQSH dollaridan ortiq bo'lgan ekvivalentdagi davlat-xususiy sheriklik

loyihalarining tender hujjatlarini va davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlarning loyihalarini kelishib oladi;

(12-modda ikkinchi qismining o'n to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

davlat-xususiy sheriklik sohasida kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

davlat-xususiy sheriklik masalalari yuzasidan tushuntirishlar beradi;

davlat-xususiy sheriklik loyihalari bajarilishining borishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi;

davlat-xususiy sheriklik loyihalarini tayyorlash uchun maslahatchilarni jalb etadi;

davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish doirasida xalqaro moliya institutlari, xalqaro va mahalliy konsalting hamda loyihalashtirish tashkilotlari bilan konsalting va auditorlik xizmatlari ko'rsatish to'g'risida muzokaralar olib boradi, shuningdek belgilangan tartibda shartnomalar tuzadi;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim muvaffaqiyatli rasmiylashtirilganligi uchun tender g'olibidan yoki to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar ishtirokchisidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdorda bir martalik to'lov undirish to'g'risida shartnoma tuzadi.

(12-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuniga](#) asosan o'n to'qqizinchi va yigirmanchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

12¹-modda. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat-xususiy sheriklik sohasidagi vakolatlari

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari:

davlat-xususiy sheriklik to'g'risida bitim tuzilishi mumkin bo'lgan o'z tasarrufidagi obyektlarni aniqlaydi;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim asosida amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan istiqbolli loyihalarni, yer uchastkalarini tegishli hududning ehtiyojlarini hamda salohiyatini inobatga olgan holda o'rganadi va belgilaydi;

tegishli hududdagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarini o'z vaqtida va samarali amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan omillarni aniqlaydi, ularni bartaraf etish choralari ko'radi;

davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Yer [kodeksiga](#) muvofiq yer uchastkalari davlat sherigiga aukcion o'tkazmasdan doimiy foydalanishga ajratilishini ta'minlaydi.

(12¹-moddaning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 6-iyundagi O'RQ-775-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son)

3-bob. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning taraflari, ularning huquq va majburiyatlari

13-modda. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning taraflari

Davlat sherigi va xususiy sherik davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning taraflaridir.

(13-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuniga](#) asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

Davlat sherigi tomonidan vakolat berilgan yuridik shaxslar yoki yuridik shaxslarning birlashmalari davlat sherigi tomonidan davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga muvofiq davlat sherigining majburiyatlarini o'z zimmasiga olgan holda harakat qilishi mumkin. Bunda davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi uchun davlat sherigi to'liq javobgar bo'ladi.

(13-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

Xususiy sherik davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini bir yoki bir necha tashkilotga topshirishi mumkin. Bunda davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi uchun xususiy sherik to'liq javobgar bo'ladi.

14-modda. Davlat-xususiy sheriklik taraflarining huquq va majburiyatlari

Davlat sherigi:

xususiy sherikdan davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim shartlari bajarilishining borishi to'g'risida hisobot so'rash va olishga;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim shartlarining bajarilishini nazorat qilishga va davlat-xususiy sheriklik loyihalarining amalga oshirilishi natijalarini baholashni amalga oshirishga;

qonunchilikka va davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim shartlariga rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish doirasida aniqlangan huquqbuzarliklar bartaraf etilishini talab qilishga;

(14-modda birinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

davlat-xususiy sheriklik loyihasi bo'yicha xususiy sherik aybi bilan davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim doirasida yuzaga kelgan zararlarning o'rnini qoplashni talab qilishga;

(14-modda birinchi qismining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

davlat-xususiy sheriklik loyihalarini tayyorlash uchun maslahatchilarni jalb qilishga haqli.

Davlat sherigi:

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonunchilik va bitim talablariga rioya etishi;

(14-modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

tender ishtirokchilariga tender hujjatlarini berishi, ularga tender hujjatlari qoidalarini tushuntirishi;

tender ishtirokchilariga davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun mo'ljallanilayotgan joy va obyekt bilan tanishib chiqish uchun zarur sharoitlarni ta'minlashi;

faoliyatni amalga oshirish uchun mo'ljallangan mol-mulkni xususiy sherikka egalik qilish va (yoki) foydalanishga berishi;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan litsenziyalar va ruxsatnomalarni olishda xususiy sherikka ko'maklashishi;

vakolatli davlat organiga davlat-xususiy sheriklik to'g'risida tuzilgan bitimlarning ko'chirma nusxalarini, shu jumladan bitimlarga doir ilovalarni, o'zgartishlarni yoki qo'shimchalarni davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim yoxud tegishli o'zgartishlar yoki qo'shimchalar imzolangan sanadan e'tiboran yigirma kalendar kun ichida taqdim etishi;

xususiy sherikning davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan o'z investitsiyalari va daromadlarini erkin boshqarish hamda tasarruf etish yoki aktivlarini va amalga oshirayotgan faoliyatini boshqarish hamda nazorat qilishga doir huquqlarini cheklamasligi;

xususiy sherik yoki xususiy sherik jalb etgan uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatga aralashmasligi;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonunchilikda va bitimda nazarda tutilgan javobgarlikni zimmasiga olishi shart.

(14-modda ikkinchi qismining o'ninchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Xususiy sherik:

davlat sherigidan davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan va erkin foydalaniladigan axborotni olishga;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim shartlarini o'zgartirish to'g'risida takliflar kiritishga;

davlat sherigining aybi bilan davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim doirasida davlat-xususiy sheriklik loyihasi bo'yicha yuzaga kelgan zararlarning o'rni qoplanishini talab qilishga haqli.

(14-modda uchinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

Xususiy sherik:

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonunchilik va bitim talablariga rioya etishi;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonunchilikda va bitimda nazarda tutilgan javobgarlikni zimmasiga olishi shart.

(14-modda to'rtinchi qismining ikkinchi va uchinchi xatboshlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Xususiy sherik davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida o'ziga berilgan yer uchastkasiga ijara huquqini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga o'tkazishga haqli emas, bundan ushbu Qonunning [35-moddasida](#) nazarda tutilgan hollar mustasno.

(14-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 6-iyundagi O'RQ-775-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son)

4-bob. Davlat-xususiy sheriklik loyihasini tashabbus qilish va tayyorlash

15-modda. Davlat-xususiy sheriklik loyihasini tashabbus qilish

Davlat-xususiy sheriklik loyihasi davlat organi (tashkiloti) (bundan buyon matnda davlat tashabbuskori deb yuritiladi) va (yoki) yakka tartibdagi tadbirkor yoxud yuridik shaxs (bundan buyon matnda xususiy tashabbuskor deb yuritiladi) tomonidan tashabbus qilinishi mumkin.

Davlat-xususiy sheriklik loyihasini tashabbus qilish:

davlat-xususiy sheriklik loyihasi konsepsiyasini ishlab chiqishni;

davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini baholash, kelishish va tasdiqlash uchun tegishli davlat organiga yuborishni;

vakolatli davlat organi tomonidan davlat-xususiy sheriklik loyihasi konsepsiyasini ko'rib chiqishni;

davlat-xususiy sheriklik loyihasi konsepsiyasini vakolatli davlat organi tomonidan ma'qullashni, rad etishni yoki maromiga yetkazish uchun qaytarishni;

davlat-xususiy sheriklik loyihasining kelishib olingan konsepsiyasining davlat sherigi yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishini;

davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini vakolatli davlat organi tomonidan Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining reyestriga kiritishni o'z ichiga oladi.

16-modda. Davlat-xususiy sheriklik loyihasini davlat tashabbuskori tomonidan tayyorlash

Davlat tashabbuskori davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini, qoida tariqasida, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning o'z vakolati sohasiga kiruvchi ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqadi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihasini tayyorlash davlat-xususiy sheriklik loyihasining oqilonaligi va samaradorligini hamda bu loyihani amalga oshirish maqsadida uning maqbul shaklini aniqlashni ta'minlovchi dastlabki moliyaviy hisob-kitoblar asosida, xususan:

davlat-xususiy sheriklik loyihasining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga muvofiq xususiy sherik tomonidan loyihalashtirilayotgan, barpo etilayotgan, moliyalashtirilayotgan, rekonstruksiya qilinayotgan, foydalanilayotgan yoki xizmat ko'rsatilayotgan davlat-xususiy sheriklik obyektining tarkibi va parametrlari;

xususiy sherikning kutilayotgan investitsiyalari hajmi va O'zbekiston Respublikasi budget tizimi budgetlaridan taxmin qilinayotgan moliyalashtirish hajmi;

davlat sherigining va xususiy sherikning majburiyatlari;

xususiy sherikka ko'rsatiladigan davlat ko'magining turlari;

muzokaralar o'tkazish muddatlari;

davlat-xususiy sheriklik obyektidan foydalangan holda taqdim etiladigan tovarlardan (ishlardan, xizmatlardan) foydalanish shartlari hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Aholining, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) iste'mol qiluvchilarning, ulardan foydalanuvchilarning manfaatlarini hisobga olish maqsadida davlat-xususiy sheriklik loyihasini tayyorlash jamoatchilik muhokamalari bilan birga olib borilishi kerak.

17-modda. Davlat-xususiy sheriklik loyihasini xususiy tashabbuskor tomonidan tayyorlash

Xususiy tashabbuskor davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini ishlab chiqishga va potensial davlat sherigiga taqdim etishga haqli. Davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasi mavjud muammolarni hal qilishga doir innovatsion yondashuvni o'z ichiga olishi va taraflar uchun maqbul bo'lgan mutanosib nafni ta'minlashi kerak.

Xususiy tashabbuskor davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini taqdim etishdan oldin dastlabki muhokama o'tkazishi, shuningdek potensial davlat sherigi bilan davlat-xususiy sheriklik to'g'risida axborot almashishi mumkin.

Xususiy tashabbuskor ushbu Qonunning [23-moddasiga](#) muvofiq dastlabki malakalashdan o'tgan taqdirda, davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini olgan potensial davlat sherigi uning amalga oshirilishini ma'qullash yoki rad etish to'g'risida o'ttiz kalendar kun ichida qaror qabul qiladi.

(17-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

Xususiy tashabbuskorning umumiy qiymati bir million AQSH dollaridan ortiq bo'lgan ekvivalentdagi davlat-xususiy sheriklik loyihasi konsepsiyasi ma'qullangan taqdirda, potensial davlat sherigi ushbu konsepsiyani vakolatli davlat organiga kelishish uchun yuboradi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

xususiy tashabbuskorning ushbu Qonunda belgilangan talablarga javob bermasligi;

(17-modda beshinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

potensial davlat sherigida davlat-xususiy sheriklik obyektiga nisbatan operativ boshqaruv huquqining mavjud emasligi;

(17-modda beshinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 7-fevraldagi O‘RQ-1025-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 8-may)

davlat-xususiy sheriklik obyektini loyihalashtirish, qurish, barpo etish, moliyalashtirish, rekonstruksiya qilish, undan foydalanish va unga xizmat ko‘rsatish zaruriyatining mavjud emasligi;

loyihani amalga oshirishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligi va (yoki) bunga ijtimoiy ehtiyojning mavjud emasligi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasi tasdiqlangan taqdirda, potensial davlat sherigi davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini hamda boshqa talabgorlarga davlat-xususiy sheriklik loyihasining amalga oshirilishidan manfaatdorligi to‘g‘risida ma’lum qilish taklifini, shuningdek ushbu Qonunning [23-moddasiga](#) muvofiq dastlabki malaka hujjatlari to‘plamini taqdim etishga doir so‘rovni o‘zining rasmiy veb-saytida, vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida va boshqa maxsus veb-saytlarda besh kalendar kun ichida e‘lon qiladi.

(17-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O‘RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

Agar davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasi e‘lon qilingan paytdan e‘tiboran qirq besh kalendar kun ichida potensial davlat sherigiga biror-bir yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishdan o‘zining manfaatdorligini ma’lum qilmasa, potensial davlat sherigi davlat-xususiy sheriklik loyihasini xususiy tashabbuskor bilan amalga oshirish haqida qaror qabul qiladi va xususiy tashabbuskor bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar o‘tkazishga kirishadi, davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim loyihasini vakolatli davlat organi bilan kelishib oladi hamda davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim loyihasi vakolatli davlat organi bilan kelishib olingan kundan e‘tiboran oltmish kun ichida xususiy tashabbuskor yoki maxsus loyihalashtirish kompaniyasi bilan tender o‘tkazmagan holda davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida bitim tuzadi.

(17-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O‘RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

Agar biror-bir yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishdan o‘zining manfaatdorligini ma’lum qilsa, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun xususiy sherikni aniqlash tender asosida amalga oshiriladi.

Bunda davlat-xususiy sheriklik loyihasining qiymatidan qat’i nazar, bir bosqichli tender o‘tkaziladi va tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘lon ommaviy axborot vositalariga hamda davlat sherigining va vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytlariga takroran joylashtirilmasdan, ushbu Qonunning [23-moddasida](#) nazarda tutilgan tenderga oid mezonlarga javob beradigan talabgorlarga davlat sherigi tomonidan tender hujjatlari to‘plami o‘ttiz kun ichida taqdim etiladi. Talabgorlar tomonidan talabnomalarni berish uchun so‘nggi muddat tender takliflarini taqdim etishga doir so‘rovda ko‘rsatiladi va bu muddat talabgorlarga ushbu so‘rov yuborilgan sanadan e‘tiboran qirq besh kundan kam bo‘lmasligi kerak. Tender komissiyasi tender g‘olibini va tenderning zaxiradagi g‘olibini ularning tender takliflarini baholash orqali aniqlaydi.

Manfaatdor bo‘lgan talabgorlardan hech biri dastlabki malaka hujjatlari to‘plamini taqdim etish

to'g'risidagi so'rov bo'yicha malaka hujjatlarini belgilangan muddatda taqdim etmagan taqdirda (xususiy tashabbuskordan tashqari), tender takroran o'tkazilishi mumkin emas va potensial davlat sherigi xususiy tashabbuskor bilan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazishga kirishadi.

(17-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuniga](#) asosan to'qqizinchi va o'ninchi qismlar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

Xususiy tashabbuskor tender g'olibi bo'lmagan taqdirda, xususiy tashabbuskorga davlat-xususiy sheriklik loyihasini tayyorlash bilan bog'liq haqiqiy xarajatlarning o'rni davlat-xususiy sheriklik loyihasi umumiy qiymatining bir foizidan oshmaydigan miqdorda tender g'olibining yoki zaxiradagi g'olibi mablag'lari hisobidan qoplanadi.

(17-moddaning o'n birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

18-modda. Davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini tasdiqlash, unga o'zgartishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish

Umumiy qiymati bir million AQSH dollariga qadar bo'lgan ekvivalentdagi davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini tasdiqlash, unga o'zgartishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish tegishli davlat organi (tashkiloti) tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Umumiy qiymati bir million AQSH dollaridan ortiq va o'n million AQSH dollariga qadar bo'lgan ekvivalentdagi davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini tasdiqlash, unga o'zgartishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish tegishli davlat organi (tashkiloti) tomonidan vakolatli davlat organi bilan kelishuvga ko'ra amalga oshiriladi.

Umumiy qiymati o'n million AQSH dollaridan ortiq bo'lgan ekvivalentdagi davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini tasdiqlash, unga o'zgartishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasi tasdiqlanganidan keyin davlat sherigi davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishning keyingi bosqichlariga o'tadi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasiga xususiy tashabbuskorning, to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar ishtirokchisining, davlat sherigining, vakolatli davlat organining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga binoan belgilangan tartibda o'zgartish va (yoki) qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

(18-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

19-modda. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining reyestri

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining reyestri amalga oshirilayotgan davlat-xususiy sheriklik loyihalari to'g'risidagi ma'lumotlarni va axborotni o'z ichiga olgan yagona axborot tizimidir.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining reyestri Internet jahon axborot tarmog'iga joylashtiriladigan, hamma foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resursidir.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining reyestri vakolatli davlat organi tomonidan yuritiladi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining reyestrini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

20-modda. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar

Davlat-xususiy sheriklik loyihalari to‘g‘risidagi quyidagi ma’lumotlar davlat sherigining va vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladi, bundan davlat siri bilan bog‘liq bo‘lgan hollar mustasno:

loyiha taraflarining nomi;

loyihaning faoliyat yo‘nalishi;

loyihaning joylashgan yeri;

loyihani amalga oshirish muddati;

iste’molchilarga realizatsiya qilinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tariflari (mavjud bo‘lgan taqdirda);

loyihaning umumiy qiymati;

davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hajmi va turlari (mavjud bo‘lgan taqdirda).

(20-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O‘RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

5-bob. Xususiy sherikni tanlash

21-modda. Davlat xususiy-sheriklik to‘g‘risidagi bitimni tuzish huquqi uchun tender

Davlat sherigi tender yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar natijalari bo‘yicha aniqlanadigan xususiy sherik bilan davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida bitim tuzadi.

Tenderlar bir bosqichli yoki ikki bosqichli bo‘lishi mumkin.

Umumiy qiymati bir million AQSH dollariga qadar bo‘lgan ekvivalentdagi davlat-xususiy sheriklik loyihasi bo‘yicha bir bosqichli tender o‘tkaziladi.

Bir bosqichli tenderni o‘tkazish chog‘ida tender ishtirokchilarining tender hujjatlarida ko‘rsatilgan konseptual qaror va shartlar asosida ishlab chiqilgan batafsil texnikaviy hamda tijoratga oid (moliyaviy) takliflari ko‘rib chiqiladi va baholanadi. Tenderni tashkil etish jarayonida talabgorlar bilan tender predmetining parametrlari bo‘yicha muzokaralar o‘tkazishga yo‘l qo‘yiladi.

Bir bosqichli tenderni o‘tkazish tartib-taomili quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘lonni ommaviy axborot vositalarida hamda davlat sherigining va vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytlarida e‘lon qilish;

tenderda ishtirok etish uchun talabgorlardan tender takliflarini olish;

tenderda ishtirok etish istagini bildirgan talabgorlarga dastlabki malaka hujjatlarini va tender hujjatlari

to'plamini berish uchun so'rov taqdim etish;

talabgorlarning tender takliflari solingan konvertlarni ochish;

tender takliflarini baholash;

tenderning g'olibini va zaxiradagi g'olibini aniqlash;

tender g'olibi yoki maxsus loyihalashtirish kompaniyasi bilan muzokaralar o'tkazish;

tender g'olibi bilan davlat-xususiy sheriklik to'g'risida bitim tuzish.

Tenderda ishtirok etish uchun tender takliflarini berish muddati tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon berilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kalendar kundan kam bo'lmasligi kerak.

Umumiy qiymati bir million AQSH dollaridan ortiq bo'lgan ekvivalentdagi davlat-xususiy sheriklik loyihasi bo'yicha ikki bosqichli tender o'tkaziladi, bundan ushbu Qonunning [17-moddasida](#) nazarda tutilgan hollar mustasno.

Ikki bosqichli tender dastlabki malakalash va tender g'olibini saralash bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Ikki bosqichli tender quyidagi tartibda o'tkaziladi:

birinchi bosqichda talabgorlarning malaka hujjatlari ko'rib chiqiladi va ularning tender hujjatlarida ko'rsatilgan malaka mezonlariga mosligi baholanadi. Talabgorlar bilan tender predmetining parametrlari bo'yicha muzokaralar o'tkazishga yo'l qo'yiladi;

ikkinchi bosqichda kiritilgan texnikaviy va tijoratga oid (moliyaviy) takliflar tender predmetining aniqlashtirilgan parametrlari hisobga olingan, baho (tarif) albatta ko'rsatilgan holda ko'rib chiqiladi hamda baholanadi.

Ikki bosqichli tenderni o'tkazish tartib-taomili quyidagilarni o'z ichiga oladi:

tender o'tkazish to'g'risidagi e'lonni va dastlabki malaka hujjatlarini berishga doir so'rovni ommaviy axborot vositalarida hamda davlat sherigining va vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilish;

talabgorlarning malakasini tasdiqlovchi dastlabki malaka buyurtmalarini yig'ish va baholash;

dastlabki malakalashdan o'tgan talabgorlarning ro'yxatini shakllantirish;

dastlabki malakalashdan o'tgan talabgorlarga davlat sherigi tomonidan tender hujjatlari to'plamini yuborish;

dastlabki malakalashdan o'tgan talabgorlar tomonidan tender takliflarini taqdim etish;

dastlabki malakalashdan o'tgan talabgorlarning tender takliflari solingan konvertlarni ochish;

tender takliflarini baholash;

tenderning g'olibini va zaxiradagi g'olibini aniqlash;

tender g'olibi bilan muzokaralar o'tkazish;

tender g'olibi yoki maxsus loyihalashtirish kompaniyasi bilan davlat-xususiy sheriklik to'g'risida bitim tuzish.

Dastlabki malakalashda ishtirok etish uchun buyurtmalar yig'ish muddati tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon berilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kalendar kundan kam bo'lmasligi kerak.

Dastlabki malakalashni o'tkazish natijasida kamida ikkita talabgor malaka talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Tender g'olibini tanlab olish bosqichida davlat sherigi dastlabki malakalashdan o'tgan talabgorlarga tender takliflarini taqdim etishga doir so'rovni va davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim loyihasini yuboradi.

Tender takliflarini berish uchun oxirgi muddat tender takliflarini taqdim etishga doir so'rovda ko'rsatiladi va u dastlabki malakalashdan o'tgan talabgorlarga ushbu so'rov yuborilgan sanadan e'tiboran qirq besh kalendar kundan kam bo'lmasligi kerak.

Talabgorlardan hech biri bittadan ortiq tender taklifini taqdim etishga haqli emas. Talabgor tender komissiyasiga tender takliflarini taqdim etish muddati tugaguniga qadar istalgan vaqtda tender taklifini o'zgartirishi yoki qaytarib olishi mumkin.

Tender takliflarini baholash tender komissiyasi tomonidan belgilangan muddat ichida o'tkaziladi. Tender takliflarini baholash tender komissiyasi tomonidan tender hujjatlarida belgilangan tender mezonlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Tender ishtirokchilari yoki ularning vakillari tender takliflarini baholashda hozir bo'lishga haqli emas. Baholash jarayonida tender komissiyasi tushuntirishlar berish, ulardan qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olish va taqdim etilgan hujjatlarning ishonchligini tasdiqlash uchun talabgorlarni chaqirish huquqiga ega. Tender yakunlarini chiqarish chog'ida tender ishtirokchilari va (yoki) ularning ishonchli shaxslari hozir bo'lishi mumkin.

Tender komissiyasi barcha talabgorlarning tender takliflarini tender talablariga nomuvofiq deb topgan taqdirda, tenderni bo'lib o'tmagan deb topadi va takroriy tender o'tkazishga haqli. Takroriy tender uni o'tkazish tartib-taomilida belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Tender komissiyasi barcha talabgorlarning tender takliflarini tender takliflarining so'rovi talablariga muvofiq emas deb topgan taqdirda, shuningdek, agar dastlabki malakalashdan o'tgan talabgorlarning soni ikki nafardan kam bo'lsa, tender bo'lib o'tmagan deb topiladi va tender komissiyasi takroriy tenderni e'lon qilishga haqli. Takroriy tender uni o'tkazish tartib-taomilida belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Malaka buyurtmalarini va tender takliflarini qabul qilish tender hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda hamda hollarda elektron tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Talabgorlarning tenderda ishtirok etishi munosabati bilan qilgan xarajatlarining o'zni qoplanmaydi, bundan ushbu Qonunning [17-moddasida](#) nazarda tutilgan hollar mustasno.

(21-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

22-modda. Tender hujjatlari

Davlat sherigi davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimni tuzish huquqi uchun tender o'tkazishni tartibga soluvchi tender hujjatlarini, shuningdek davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim loyihasini tayyorlaydi va tasdiqlaydi.

(22-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

Umumiy qiymati bir million AQSH dollaridan ortiq bo'lgan davlat-xususiy sheriklik loyihasi bo'yicha tender hujjatlari va davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim loyihasi vakolatli davlat organi bilan kelishib olinadi.

(22-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuniga](#) asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

Tender hujjatlarida quyidagilar aks ettirilishi kerak:

talabgorlarning malaka talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlarga doir talablar;

davlat-xususiy sheriklik obyektining joylashgan yeri;

texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar samaradorligining umumiy parametrlari va talablari;

(22-modda uchinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

davlat-xususiy sheriklik obyektini loyihalashtirish, qurish, moliyalashtirish, rekonstruksiya qilish, undan foydalanish va unga xizmat ko'rsatish muddatlari;

davlat-xususiy sheriklik obyektini yoki xususiy sherik tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar sifatining ko'rsatkichlari yoki unga doir eng kam talablar;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimni bajarish maqsadida davlat sherigi tomonidan xususiy sherikka beriladigan moliyalashtirish hajmi, mol-mulkning yoki mulkiy huquqlarning ro'yxati;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning taraflari o'z zimmasiga olayotgan xavf-xatarlar;

davlat-xususiy sheriklik loyihasining parametrlari aks ettirilishi kerak bo'lgan valyuta va ularni taqqoslash va baholash maqsadida yagona valyutaga keltirish uchun hisob-kitoblarda foydalaniladigan valyutaning kursi;

tender mezonlarining tavsifi;

tender taklifi beriladigan tilga doir talablar;

tender taklifining mazmuni, tender takliflarini berish va ularning amal qilish usuli, joyi, muddatlari;

tender taklifiga doir ta'minot kiritish shartlari;

tender takliflari solingan konvertlarni ochish tartib-taomillari, joyi, sanasi va vaqti.

(22-modda uchinchi qismining o'n birinchi — o'n to'rtinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim loyihasi tender hujjatlarining ajralmas qismidir.

Davlat sherigi vakolatli davlat organi bilan kelishuvga ko'ra tender hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishga haqlidir. Davlat sherigi tender hujjatlariga o'zgartish va (yoki) qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran besh kalendar kundan kechiktirmay barcha talabgorlarni tender hujjatlariga kiritilgan o'zgartishlar va (yoki) qo'shimchalar haqida xabardor qilishi shart. Bunda tender takliflaridagi ushbu o'zgartishlar va (yoki) qo'shimchalar talabgorlar tomonidan hisobga olinishi uchun davlat sherigi tender takliflarini taqdim etishning oxirgi muddatini o'n besh kalendar kundan kam bo'lmagan muddatga uzaytiradi.

(22-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

23-modda. Tender mezonlari

Tender mezonlari aniq bo'lishi va barcha talabgorlarga nisbatan kamsitishsiz qo'llanilishi kerak.

(23-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

Talabgor davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishdan manfaatdor ekanligini bildirish uchun tenderda ishtirok etganda quyidagi mezonlarga muvofiq bo'lishi kerak:

huquq layoqatiga ega bo'lishi;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga doir majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy va (yoki) moddiy, texnik resurslarga va (yoki) malakali mehnat resurslariga ega bo'lishi;

mavjudligi manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan asoslarga ega bo'lmasligi.

Qayta tashkil etilish, tugatilish va (yoki) to'lovga qobiliyatsizlik bosqichida bo'lgan talabgorlarning tenderda ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

(23-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-fevraldagi O'RQ-911-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son)

Tender g'olibini tanlab olish bosqichida foydalaniladigan mezonlarda quyidagilar nazarda tutiladi:

davlat sherigi va xususiy sherik tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlarning hajmi;

eng yuqori narxlar va tariflar;

xususiy sherikning davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimni bajarish uchun jalb etiladigan mablag'lari hajmi;

xususiy sherikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hajmi va turlari;

davlat-xususiy sheriklik obyektni loyihalashtirish va (yoki) qurish, barpo etish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash, undan foydalanish va unga xizmat ko'rsatish muddati;

davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish muddati;

(23-modda to'rtinchi qismining yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

davlat-xususiy sheriklik loyihasining texnik va texnologik afzalliklari, funksional va innovatsion tavsiflari.

24-modda. Tender komissiyasi

Davlat sherigi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishuvga ko'ra davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimni tuzish huquqi bo'yicha tender g'olibini aniqlash uchun tender komissiyasini shakllantiradi.

Tender komissiyasi tarkibiga davlat sherigining, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining va vakolatli davlat organining vakillari majburiy tartibda kiritiladi.

(24-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldagi O'RQ-850-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.07.2023-y., 03/23/850/0439-son — 2023-yil 4-oktabrdan kuchga kiradi)

Davlat sherigining vakili tender komissiyasi raisidir. Vakolatli davlat organining vakili tender komissiyasi tarkibida maslahat ovozi bilan ishtirok etadi.

Tender komissiyasi a'zolarining soni toq bo'lishi kerak.

Tender komissiyasi, agar majlisda uning a'zolari umumiy sonining kamida yetmish besh foizi hozir bo'lsa, qarorlar qabul qilish huquqiga ega, bunda tender komissiyasining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

Tender komissiyasining qarorlari tender komissiyasining ovoz bergan a'zolari umumiy sonining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar soni teng bo'lib qolgan taqdirda tender komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Tender komissiyasi o'z majlislarining bayonnomalarini yuritadi, bayonnomalar uning majlislarda hozir bo'lgan barcha a'zolari tomonidan imzolanadi.

Tender komissiyasi a'zosida majlisga chiqarilgan masalalar yuzasidan manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan taqdirda, u o'z nomzodini qaytarib olishini bildirishi va ushbu masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda bayonnomada qayd etiladi.

25-modda. To'g'ridan-to'g'ri muzokaralar

Taraflar davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimni davlat sherigining qaroriga muvofiq quyidagi hollarda to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazish asosida tender o'tkazmasdan tuzishi mumkin:

davlatning mudofaa qobiliyatini va xavfsizligini ta'minlashda;

davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishning zaruriy sharti hisoblangan intellektual faoliyat natijalariga doir mutlaq huquqlar, boshqa mutlaq huquqlar, yer uchastkasi, boshqa ko'chmas mol-mulk obyekti va o'zga mol-mulk muayyan shaxsga tegishli bo'lganda;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan belgilangan hollarda.

(25-moddaning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

6-bob. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim

26-modda. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida bitim tuzish

Davlat sherigi tender g'olibi, to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar ishtirokchisi yoki maxsus loyihalashtirish kompaniyasi bilan ushbu Qonunning [17](#), [21](#) va [25-moddalariga](#) muvofiq davlat-xususiy sheriklik to'g'risida bitim tuzadi.

Agar tender g'olibi tender hujjatlarida nazarda tutilgan muddat tugaganidan keyin davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimni imzolamasa yoki tender komissiyasi tomonidan tender g'olibi taqdim etgan axborotning haqiqatga to'g'ri kelmasligi aniqlangan taqdirda, tender komissiyasi uni diskvalifikatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qiladi va tenderning zaxiradagi g'olibini g'olib deb topadi hamda unga tender g'olibini diskvalifikatsiya qilish haqida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran o'n kalendar kun ichida g'olib shartlari asosida davlat-xususiy sheriklik to'g'risida bitim tuzishni taklif etadi.

Zaxiradagi g'olib tender komissiyasining qaroriga muvofiq tender g'olibining tender taklifidan so'ng eng yaxshi tender taklifini bergan deb e'tirof etilgan talabgor hisoblanadi.

Tender komissiyasi tomonidan tenderning zaxiradagi g'olibiga davlat-xususiy sheriklik to'g'risida bitim tuzish haqidagi taklif yuborilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kalendar kun ichida undan ijobiy javob olinmagan taqdirda, tender komissiyasi tenderni bo'lib o'tmagan deb topadi va takroriy tender e'lon qiladi.

(26-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

27-modda. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning asosiy shartlari

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda va shartlarda davlat sherigi va xususiy sherik o'rtasida tuzilgan hujjatdir.

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning taraflari haqidagi;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning predmeti haqidagi;

taraflarning majburiyatlari va javobgarligi to'g'risidagi;

davlat sherigi va xususiy sherik o'rtasida xavf-xatarlarning taqsimlanishi haqidagi;

davlat-xususiy sheriklik obyektining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga oid umumiy parametrlari va samaradorlik bo'yicha talablar, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga muvofiq o'tkazilgan yoki loyihalashtirilishi, qurilishi, barpo etilishi, moliyalashtirilishi, rekonstruksiya qilinishi, foydalanilishi va (yoki) xizmat ko'rsatilishi lozim bo'lgan boshqa davlat-xususiy sheriklik obyektlarining

tavsifi, ulardan foydalanish maqsadlari va muddatlari to'g'risidagi;

(27-modda ikkinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

davlat-xususiy sheriklik loyihasi bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) muddatlari va tartibi haqidagi;

ta'raflarning tegishli infratuzilmaga nisbatan va davlat-xususiy sheriklik loyihasi bo'yicha huquqlarini taqsimlash to'g'risidagi, shuningdek ularni boshqa shaxsga o'tkazish tartibi haqidagi;

davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun talab etiladigan yer uchastkalarini berish tartibi va tartib-taomili to'g'risidagi, yer uchastkalariga taalluqli boshqa shartlar haqidagi;

xususiy sherik tomonidan beriladigan tovarlarga, bajariladigan ishlarga, ko'rsatiladigan xizmatlarga doir narxlarini, tariflarni belgilash va ularni o'zgartirish shartlari to'g'risidagi;

ta'raflarning o'z majburiyatlari bajarilishini ta'minlash usullari, miqdorlari va muddatlari haqidagi;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning muddati, bu muddatni belgilash tartibi haqidagi;

haq to'lash, erkin foydalanilish uchun to'lov, foydalanganlik uchun to'lov, xususiy sherikning davlat sherigiga to'lovining va (yoki) boshqa to'lovlarning shakllari, miqdorlari, muddatlari, shartlari, ularni to'lash tartibi, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik loyihasi amalga oshirilishi munosabati bilan daromadlarning (foydaning) taqsimlanishi haqidagi;

(27-modda ikkinchi qismining o'n uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish tartibi haqidagi;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimni tugatish asoslari, tartibi va shartlari, muddatidan oldin tugatilganlik uchun to'lov miqdori va tartibi haqidagi;

davlat-xususiy sheriklik loyihasining amalga oshirilishini monitoring va nazorat qilish tartibi to'g'risidagi;

sug'urta qilish bo'yicha majburiyatlar haqidagi;

loyiha hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha majburiyatlar to'g'risidagi;

ta'raflarning davlat-xususiy sheriklik haqidagi bitimga doir majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarligi to'g'risidagi;

nizolarni hal etish tartibi haqidagi;

O'zbekiston Respublikasida xodimlarni ishga olish va mehnatdan foydalanishga nisbatan qo'llaniladigan shartlar to'g'risidagi;

ishontirishlar va kafolatlar haqidagi;

xususiy sherikning ulushlariga egalik qilishga nisbatan talablar va xususiy sherikning hamda uning

affillangan shaxslarining mol-mulkiga nisbatan boshqa mulkiy huquqlar to'g'risidagi;
maxfiylik haqidagi;
atamalar va ularga doir tushuntirishlar to'g'risidagi.

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga belgilangan tartibda qo'shimcha ma'lumotlar kiritilishi mumkin.

(27-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuniga](#) asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

28-modda. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning amal qilish muddati

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning amal qilish muddati uch yildan kam bo'lmasligi va qirq to'qqiz yildan oshmasligi kerak.

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim taraflari bitimning amal qilish muddatini davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda belgilangan hollarda va shartlar asosida, ushbu moddaning [birinchi qismida](#) belgilangan muddatlar doirasida uzaytirish yoki qisqartirish haqida kelishib olishi mumkin.

29-modda. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimni o'zgartirish, unga qo'shimcha kiritish yoki uni bekor qilish

Agar qonunchilikda yoki davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim taraflarning kelishuviga ko'ra yoxud sudning qaroriga binoan o'zgartirilishi, unga qo'shimcha kiritilishi yoki u bekor qilinishi mumkin.

Umumiy qiymati bir million AQSH dollariga qadar bo'lgan ekvivalentdagi davlat-xususiy sheriklik loyihasi bo'yicha davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimni o'zgartirish, unga qo'shimcha kiritish yoki uni bekor qilish davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda belgilangan tartibda davlat sherigi va xususiy sherik tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Umumiy qiymati bir million AQSH dollaridan ortiq bo'lgan ekvivalentdagi davlat-xususiy sheriklik loyihasi bo'yicha davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimni o'zgartirish, unga qo'shimcha kiritish yoki uni bekor qilish vakolatli davlat organi bilan kelishuvga ko'ra amalga oshiriladi.

Umumiy qiymati o'n million AQSH dollaridan ortiq bo'lgan ekvivalentdagi davlat-xususiy sheriklik loyihasi bo'yicha davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimni o'zgartirish, unga qo'shimcha kiritish yoki uni bekor qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishuvga ko'ra amalga oshiriladi.

(29-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

30-modda. Davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun jalb qilingan mol-mulk

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim davlat sherigining davlat-xususiy sheriklik obyektni tashkil etuvchi mol-mulkni va (yoki) davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa mol-mulkni xususiy sherikka egalik qilish va undan foydalanish uchun berish majburiyatini

nazarda tutishi mumkin. Bunda mol-mulkning berilishini ta'minlash yoki tashkil etish davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida amalga oshiriladi hamda qo'shimcha shartnomalar yoki bitimlar tuzish talab qilinmaydi.

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning mulk huquqiga ega bo'lgan taraflari bunday huquqlarni, shu jumladan yer uchastkalarining, boshqa ko'chmas, shuningdek ko'char mol-mulkning va nomoddiy aktivlarning ijarasiga bo'lgan huquqni, ularga egalik qilish, ulardan foydalanish huquqini davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan doirada, boshqa mulkiy huquqlar bilan bir qatorda bir-biriga berishi mumkin.

(30-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

31-modda. Yer uchastkalarini berish

Davlat-xususiy sheriklik obyekti joylashgan va (yoki) davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, davlat sherigiga doimiy foydalanish huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkalari yoki ularning bir qismi davlat sherigi tomonidan xususiy sherikka davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda ko'rsatilgan muddatga va shartlar asosida ijaraga beriladi. Davlat sherigining davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan doimiy foydalanishdagi yer uchastkasi mavjud bo'lmagan taqdirda, bunday yer uchastkasi davlat sherigiga uning murojaatiga ko'ra doimiy foydalanish uchun beriladi hamda davlat sherigi uni xususiy sherikka davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda ko'rsatilgan muddatga va shartlar asosida ijaraga beradi.

Davlat sherigi tomonidan xususiy sherikka ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtirilgan miqdorda hisoblanadi. Ijara haqini hisoblashda yer solig'iga doir imtiyozlar inobatga olinadi.

Davlat sherigi tomonidan xususiy sherikka yer uchastkasini ijaraga berishga doir majburiyatning bajarilmaganligi xususiy sherik tomonidan davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimni bir tomonlama bekor qilish uchun asos bo'ladi.

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning tugatilishi davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun berilgan yer uchastkasining ijarasiga nisbatan shartnomaviy munosabatlarni tugatish uchun asos bo'ladi.

(31-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 6-iyundagi O'RQ-775-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son)

32-modda. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim taraflarining mulkiy javobgarligi

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning taraflari o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga muvofiq mulkiy javobgar bo'ladi.

Taraflardan biri davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga muvofiq boshqa taraf yetkazilgan zararining o'zni qoplanishi huquqiga ega bo'ladi.

(32-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

33-modda. Davlat-xususiy sheriklik obyektiga bo'lgan mulk huquqini o'tkazish tartibi

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim davlat-xususiy sheriklik loyihasi doirasida loyihalashtirilgan, barpo etilgan, moliyalashtirilgan, rekonstruksiya qilingan, foydalanilayotgan va xizmat ko'rsatilayotgan davlat-xususiy sheriklik obyektiga bo'lgan mulk huquqlarini davlat sherigiga yoki O'zbekiston Respublikasining davlat aktivlarini boshqarish organiga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq xususiy sherikka o'tkazish tartibini belgilaydi.

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda davlat-xususiy sheriklik obyektiga bo'lgan mulk huquqlarini o'tkazish payti, xususan:

davlat-xususiy sheriklik obyektini foydalanishga topshirilgan payt;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning amal qilish muddati tugallangan payt;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda belgilangan boshqa vaqt ko'rsatilishi kerak.

7-bob. Xususiy sherik va kreditorning manfaatlarini himoya qilish

34-modda. Xususiy sherik huquqlarining kafolatlari

Agar davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim tuzilgan sanada amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining o'zgartirilishi to'g'ridan-to'g'ri xususiy sherikning davlat-xususiy sheriklik loyihasi doirasidagi xarajatlari oshishiga yoki uning daromadlari kamayishiga olib kelsa, xususiy sherik, amalga oshirilayotgan loyihadan kelib chiqqan holda, davlat-xususiy sheriklik obyektidan erkin foydalanish uchun to'lov va (yoki) foydalanganlik uchun to'lov kompensatsiyalovchi tarzda oshirilishini, shuningdek davlat sherigidan bir martalik kompensatsiya to'lovini va (yoki) davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga tegishli o'zgartish va (yoki) qo'shimchalar kiritilishini, agar bu davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan bo'lsa, talab qilishga haqli.

Ushbu moddaning [birinchi qismida](#) nazarda tutilgan kafolatlarni qo'llashga doir tartib, shartlar, cheklovlar va istisnalar davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda belgilanadi.

Ushbu modda [birinchi qismining](#) qoidalarini davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim tuzilganidan keyin soliqlar va yig'img'irlar o'zgartirilishini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'zgargan taqdirda qo'llanilmaydi, bundan muayyan bir davlat-xususiy sheriklik loyihasiga (loyihalariga) nisbatan kamsituvchi o'zgarishlar mustasno.

(34-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

35-modda. Kreditorning manfaatlarini himoya qilish

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda kreditor huquqlarining kafolatlarini ta'minlovchi qoidalar, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda kreditorlarga to'lanadigan kompensatsiyaning miqdorlari nazarda tutilishi mumkin.

Kreditorlar ishtirokidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalari doirasida kreditorlar davlat sherigi yoki xususiy sherik bilan to'g'ridan-to'g'ri bitimlar tuzishi mumkin bo'lib, ularda quyidagilar inobatga olinishi kerak:

xususiy sherik (xususiy sherik rahbariyatining) almashtirilishi yoki chetlashtirilishi munosabati bilan

kreditorlarning huquqlari va majburiyatlari;

xususiy sherik almashtirilgan yoki chetlashtirilgan hollarda, davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga muvofiq davlat sherigi tomonidan xususiy sherikka to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlarni kreditorlarga to'lash majburiyati;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimni bekor qilish xavfini kamaytirishga doir shartlar;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim muddatidan oldin tugatilganda to'lanadigan to'lovlar;

davlat-xususiy sheriklik loyihasining amalga oshirilishi haqidagi, taraflarning huquq va majburiyatlari ta'minlanishi to'g'risidagi axborotni almashish tartibi.

(35-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuniga](#) asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

Xususiy sherik o'z kreditorlariga ta'minotning har qanday turini yoki shaklini taqdim etishi, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim va ushbu bitimni bajarish uchun tuzilgan bitimlar bo'yicha o'z huquqlarini, davlat-xususiy sheriklik loyihasi tarkibiga kiruvchi huquqlarni, aktivlarni, aksiyalar garovini, huquqlar garovini yoki huquqlardan o'zganing foydasiga voz kechishni, mazkur bitim bo'yicha o'ziga tegishli bo'lgan foydani va summalarni berishi mumkin.

(35-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 6-iyundagi O'RQ-775-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son)

Kreditor va davlat sherigi davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishdan xususiy sherikni yoki uning rahbariyatini davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan shartlarga muvofiq chetlashtirishga hamda davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda belgilangan shartlarga muvofiq uni yangi xususiy sherikka almashtirishga yoki uning rahbariyatini almashtirishga haqli.

Yangi xususiy sherik davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga muvofiq ishlarni yakunlash va (yoki) xizmatlar ko'rsatish uchun zarur bo'lgan talablarga javob berishi kerak. Xususiy sherik yangi xususiy sherikka almashtirilgan taqdirda tender o'tkazilmaydi.

8-bob. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining amalga oshirilishi sohasida monitoring va hisobdorlik

36-modda. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining amalga oshirilishi yuzasidan monitoring

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda bitim taraflarining davlat-xususiy sheriklik loyihasining amalga oshirilishi to'g'risidagi axborotni almashishga taalluqli majburiyatlari nazarda tutiladi.

Vakolatli davlat organi davlat-xususiy sheriklik loyihalari bajarilishining davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim shartlariga rioya etilishi nuqtai nazaridan monitoringini amalga oshiradi. Xususiy sherik monitoringni amalga oshirish maqsadlari uchun davlat-xususiy sheriklik obyektlariga kirilishini va tegishli hujjatlardan foydalanilishini ta'minlashi shart.

37-modda. Davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish bo'yicha hisobdorlik

Davlat sherigi davlat-xususiy sheriklik loyihasining amalga oshirilishi to'g'risidagi hisobotni vakolatli davlat organiga davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning taraflari tomonidan imzolangan holda har olti oyda taqdim etadi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihasining amalga oshirilishi to'g'risidagi hisobotni taqdim etish tartibi va

uning shakli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

9-bob. Davlat-xususiy sheriklikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari

(9-bobning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

38-modda. Davlat-xususiy sheriklikni qo'llab-quvvatlash turlari

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim doirasida xususiy sherikning va (yoki) kreditorning (kreditorglarning) manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi qo'llab-quvvatlashning quyidagi turlarini taqdim etishi mumkin:

subsidiyalar, shu jumladan xususiy sherikning davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishdan oladigan, kafolatlangan eng kam daromadini ta'minlashga yo'naltiriladigan subsidiyalar;

davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan aktivlar va mol-mulk tarzidagi qo'yilmalar;

davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish jarayonida ishlab chiqarilgan yoki yetkazib berilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) muayyan miqdorini yoki bir qismini iste'mol qilganlik yoki ulardan foydalanganlik uchun to'lovga yo'naltiriladigan O'zbekiston Respublikasi budjeti tizimining budjetlar mablag'lari;

budjet ssudalarini, qarzlarini, grantlarini, kredit liniyalarini va moliyalashtirishning boshqa turlarini berish;

investorlar tomonidan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida o'zaro kelishuvga ko'ra qo'shimcha kafolatlar;

soliq imtiyozlari va preferensiyalari, shuningdek boshqa imtiyozlar;

boshqa kafolatlar va (yoki) kompensatsiyalar.

Qo'shimcha kafolatlar berish va (yoki) qo'llab-quvvatlash O'zbekiston Respublikasi bilan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida bitim tuzish orqali yoki davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi bitim O'zbekiston Respublikasi va xususiy sherik o'rtasida tuziladigan, xususiy sherik va (yoki) kreditorglarga qo'shimcha kafolatlar hamda qo'llab-quvvatlash choralari (imtiyozlar va preferensiyalar) berilishini nazarda tutadigan yozma bitimdir.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi bitim O'zbekiston Respublikasi nomidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan imzolanadi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi bitim, agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ushbu bitimni tasdiqlash to'g'risidagi qarori qabul qilingan kundan e'tiboran

kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga bevosita yoki bilvosita ta'sir etadigan qo'shimcha kafolatlarning va (yoki) qo'llab-quvvatlashning har qanday turlari davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasi tasdiqlanguniga qadar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishib olinishi kerak.

Soliq imtiyozlari va preferensiyalari O'zbekiston Respublikasining Soliq [kodeksida](#) nazarda tutilgan tartibda belgilanadi.

Alohida hollarda, davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar doirasida jalb etiladigan chet el investitsiyalari ishtirokida amalga oshiriladigan davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlarining chet el valyutalariga va shartli birliklarga bog'lanishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan xususiy sherik davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda va (yoki) davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan maqsadlarda xorijda bank hisobvaraqlarini ochishga haqli.

(38-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

39-modda. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim bo'yicha to'lovlar

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda to'lovlarni amalga oshirish shartlari, shu jumladan mehnatga haq to'lash, erkin foydalanish uchun to'lov, foydalanganlik uchun to'lov, xususiy sherikning davlat sherigiga to'lovi va (yoki) boshqa to'lovlar, xususan davlat-xususiy sheriklik loyihasi amalga oshirilishi munosabati bilan daromadlarni (foydani) taqsimlash shartlari nazarda tutilishi mumkin.

(39-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-yanvardagi O'RQ-669-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son)

Erkin foydalanilish uchun to'lovlarga ajratiladigan budget mablag'lari, boshqa to'lovlar davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimning butun amal qilishi davomida tegishli budgetning xarajatlar qismida har yili nazarda tutiladi.

Xususiy sherik davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga muvofiq davlat sherigiga to'lovlarni quyidagicha amalga oshirishi mumkin:

davriy asosda to'lanadigan, qat'iy summa tarzida;

bir yo'la to'lov tarzida;

xususiy sherikning faoliyatidan keladigan o'ziga tegishli bo'lgan har qanday daromadning muayyan qismi tarzida.

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda to'lovlarning har xil turlari birgalikda nazarda tutilishi mumkin.

10-bob. Yakunlovchi qoidalar

40-modda. Nizolarni hal etish

Davlat-xususiy sheriklik sohasida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

(40-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

41-modda. Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

(41-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

42-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta’minlash

Vakolatli davlat organi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

43-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

(43-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

44-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran bir oy o‘tgach kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,

2019-yil 10-may,

O‘RQ-537-son

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.05.2019-y., 03/19/537/3113-son; 23.01.2021-y., 03/21/669/0060-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son; 03.07.2023-y., 03/23/850/0439-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son; 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son)